

**1-SINF “ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDA  
MAQOL, TOPISHMOQ VA TEZ AYTISHLARNING O’RNI VA  
AHAMIYATI**

N. B. Adizova,  
BDPI dotsenti

S. U.Olimova,  
Boshlang’ich ta’lim yo’nalisi talabasi

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada 1- sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi” kitobida o’quvchilarga taqdim etilgan maqol, topishmoq va tez aytishlarning o’rni o’rganilgan. Shuningdek, xalq og’zaki ijodidan 1-sinflar uchun qanday namunalar taqdim etish mumkinligi to’g’risidagi qarashlar ifoda etilgan.

**Kalit so’zlar:** Xalq og’zaki ijodi, maqol, topishmoq, tez aytish.

1-sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi” darsligi bu bolajonlar “Alifbe”dan keyin foydalanuvchi kitob hisoblanadi. Bilamizki, ushbu darslikda she’r, hikoya va ertaklardan tashqari xalq og’zaki ijodidan namunalar bayon etilgan.

Xalq og’zaki ijodi yozma adabiyotdan oldin paydo bo’lgan va yozma adabiyotning hosil bo’lishi uchun zamin yaratgan. Xalq yaratgan asarlar o’zining sodda, tez tushunilish, chuqur xalqchilligi, til boyligi bilan ajralib turadi. U xalqning irodasi, ishonchi, kelajakka bo’lgan umidini ifoda etadi. Xalq shoirlari yoki jamoat tomonidan yaratilib, og’izdan og’izga o’tib kelgan badiiy asarlar xalq og’zaki ijodi deyiladi. Xalq og’zaki ijodi fol’klor deb ham yuritiladi. Xalq og’zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo’shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar va h.k.

Biz shulardan maqol, topishmoq va tez aytishni 1-sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi”darsligida ko’rishimiz mumkin.

Maqol-xaql og’zaki ijodi janri bo’lib, qisqa va lo’nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli, muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg’ulari, ijobiy fazilatlarini uyg’unlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do’sstlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq

madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko'p uchraydi ("Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l" va boshqalar).

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli vari-antlarda ishlatiladi. Maqollar ba'zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, xattoki, g'oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. So'z ko'rki - maqol!

Topishmoq- bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o'yin bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi. Topishmoqlardagi savollar; U kontseptsiyani tavsiflovchi darajada bo'rttirish, teskari o'zgartirish va o'zgartirish orqali yaratilgan Bu ibora "so'roq gap" bo'lishi shart emas. Topishmoqlar bir necha so'zdan tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo'lishi mumkin. Ko'p topishmoqlar qofiyada holida keladi.

Tez aytish — o'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo'lgan qofiyadosh so'zlardan tuzilgan jumlar qo'llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so'zlar ritm, urg'ular bilan tez aytiladi. Masalan, Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida besh ming mis barkash. Tez aytishda har bir tovush o'z o'rnida to'g'ri, ravon talaffuz etilishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan hisoblanadi. O'tmishda katta yoshdagi odamlar ham o'tirishlarda, to'ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so'z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo'lishiga xizmat qiladi.

Darslikda(jami):4ta maqol,12ta topishmoq, 8ta tez aytish mavjud.

Maqollar:1) Yoz mevasi- qish xazinasasi.

2)G'oz kelgani-yoz kelgani.

Topishmoqlar: 1) Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.

2) Oppoqqina dasturxon yer yuzini qoplagan.

Tez aytishlar: 1)Jamol jalol jo'ralar,

Boqdi jajji jo'jalar.

2)Sovuqda tovuqqa tovoqda

Bodom sochdim

Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz singari xalq og'zaki ijodi birinchidan, sodda uslubda, ikkinchidan barcha tushuna oladigan so'zlar orqali yaratilgani uchun ham 1-sinf darsliklaridan alohida o'rin egallagan.

Xalqimizda:“Yoshlikda berilgan bilim toshga o'yilgan naqshdir”,-degan naql bor. Maqollar orqali bolajonlarga Vatanga, tabiatga, ota-onaga bo'lgan mehrni singdirishimiz mumkin. Shu sababli ushbu darslikda maqollarning o'rni beqiyosdir. Bola o'qishni, yozishni o'rganayotgan paytdan boshlab unga yuqoridagi his tuyg'ularni shakllantrib borilsa, tarbiyalanayotgan o'quvchi Vatani, oilasi uchun jonini fido qiladigan farzand bo'lib yetishadi.

Albatta, darslikda berilgan har bir asarning alohida o'rni va vazifasi bor. Maqollar bolalarga tarbiyaviy jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun birinchi maqolning tag zamirida chuqur ma'no yotadi. Bu shunchaki yozda pishgan meva qishda yeyiladi degani emas. Bu maqol shuni anglatadiki, yozda qilingan mehnat, samarasi qishda bilinadi. Yozda mehnat qilgan kishi keyinchalik shu mehnatning rohatini ko'radi. Yoz ma'nosida faqatgina faslni tushunmaslik kerak. Bu umrning yozi, ya'ni ayni mehnatga, bilim olishga bo'lgan quvvatimiz cho'qqisiga chiqqan palla nazarda tutilmoqda. Shu ikki misra katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.

Topishmoqlar esa bolalarni mantiqiy, tanqidiy jihatdan fikrlashga, aqlini charxlashga chorlaydi. Bundan tashqari ular bola fikrini bir joyga jamlash uchun ham xizmat qiladi.

Topishmoqni tushuntirgandan so'ng uni topish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi o'qituvchi tomonidan bolalarga tushintirilib berilishi maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda topishmoqni topish uchun berilgan misradagi kalit so'zlarga e'tibor qaratish kerakligi uqtirilishi kerak.

Tez aytishlar esa o'quvchining nutqini oshirish uchun alohida ahamiyatga ega. Aksariyat o'quvchilarda nutqida kamchiliklar borligiga guvoh bo'lamiz. Buning asosiy sababi boshlang'ich sinfligidayoq bola nutqiga, harflarni to'g'ri talaffuz qilishiga o'qituvchi alohida ahamiyat qaratmaganligi, bu bilan shug'ullanmaganligidadir. Tez aytishlarni ko'proq aytirish bola nutqini shakllantirishning zaruriy usullardan biridir.

O'quvchi birinchi sinfligidan ushbu maqol, topishmoq, tez aytishlarning kitobda berilishi uni she'riyatga bo'lgan qiziqishini ham oshirishga alohida xizmat qiladi. Chunki, birinchi sinf o'quvchisiga aruzga solib bitilgan biror bir asar taqdim etsangiz yoki undan parcha bersangiz birinchidan, o'quvchi so'zlarni

tushunmaydi, ikkinchidan, uning she'riyatga bo'lgan mehri uyg'onmaydi. Va uni yod olishda ham qiynaladi. Ammo yuqorida berilgan xalq og'zaki ijodining sodda, ixcham, o'qilishi oson namunalarini o'quvchi tez va qiziqish bilan yod oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.Azimova, K.Mavlonova "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-sinf 1,2-qism Toshkent,2001  
Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 153-157.
3. Bakhtiyorovna, Nigora Adizova, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "Anvar obidjon is a children's poet." Middle European Scientific Bulletin.
4. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Boymuradova Sadoqat. "Use Foreign Experience to Improve the Reading Literacy of Primary School Students." Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 306-309.
5. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335.
6. Адизова, Нодира. "Микротопонимлар таснифи (Бухоро вилояти misolida)." Общество и инновации 3.3/S (2022): 128-132.
7. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lyubat Ilhomovna. "Таълим Муассасаларида Таълим-Тарбия Жараёнларида Интерфаол Методлардан Фойдаланишнинг Ҳозирги Кундаги Ҳолати." Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 330-333.
8. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "INTERFAOL MASHQLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH" E Conference Zone. 2023.
9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2022): 52-53.
10. Bakhtiorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMY JURNALI 2.10 (2022): 296-298.
11. Адизова, Нодира Бахтиёрвна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMY JURNALI 2.1 (2022): 513-516.



12. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

13. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

14. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." Scientific progress 2.7 (2021): 1003-1009.

15. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 41-43.

16. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. 2023.